

Published Date:- 18-10-2023

**ESP/EAP O‘QUVCHILARINING MAXSUS LUG’ATLARGA
BO‘LGAN EHTIYOJLARI**

ABDULLAYEVA MARXABO RAXMONKULOVA

Ingliz tili fani o‘qituvchisi,

G‘arb tillari kafedrası

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

a.marxabo.r@mail.ru

telefon raqam: 99.0116106

Annotatsiya

Ushbu maqolada ESP/EAP o‘quvchilarining maxsus lug‘atga bo‘lgan ehtiyojlari, darslik va asarlar tarjimalari jarayonidagi muommolari xaqida malumotlar berilgan. Lug‘atlarni bilan ishlash, lug‘atlarning tuzilishi- qurilishi, transformatsiya qilinishi hamda o‘rganilayotgan tilning kommunikativ jarayonini ta‘minlashi qanday yuz berishini ko‘rsatib berish imkoniyatini yaratdi.

Kalit so‘zlar: ESP/EAP o‘quvchilar, noqardosh tillar, maxsus lug‘atlar, zamonaviy va samarali tadqiq, nutqiy faoliyat, ma‘naviy- madaniy holatlar.

Абстракт

В данной статье представлена информация о потребностях студентов ESP/EAP в специальной лексике, проблемах в процессе перевода учебников и работ. Работа со словарями позволила показать, как словари строятся, трансформируются и обеспечивают коммуникативный процесс изучаемого языка.

Ключевые слова: учащиеся ESP/EAP, неродственные языки, специализированные словари, современные и эффективные исследования, речевая деятельность, духовно-культурные ситуации.

Abstract

This article provides information about ESP/EAP students' needs for special

Published Date:- 18-10-2023

vocabulary, problems in the process of translating textbooks and works. Working with dictionaries made it possible to show how dictionaries are constructed, transformed, and ensure the communicative process of the language being studied.

Key words: *ESP/EAP learners, non-kin languages, specialized dictionaries, modern and effective research, speech activity, spiritual-cultural situations.*

Kirish qismi:

ESP/EAP o‘quvchilarining maxsus lug‘atga bo‘lgan ehtiyojlari yangi ilmiy-nazariy monografiya, darslik va qo‘llanmalarda o‘z amaliy ifodasini topdi. Shubhasiz, erishilgan yutuqlar endilikda xorijiy tilni asosini o‘rganishdan, uning voqealanish xususiyatlarini har tomonlama tadqiq etishga o‘tish uchun keng imkoniyatlar ochdi. Demakki, xorijiy tilini zamonaviy va samarali tadqiq etish usullari orqali ilmiy o‘rganish dolzarb muammoga aylandi.

Jahon tilshunosligida tillararo amaliy, nutq, jamiyat, madaniyat, milliy tafakkur, hatto sun‘iy intellekt bilan uzviy munosabatini tekshirayotgan yangi yo‘nalishlarning allaqachon shakllanib bo‘lganligi fanimiz oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Ingliz–o‘zbek adabiy aloqalari tarixida 80-yillar tarjimachiligining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu davrda ingliz va yevropa adabiyoti namunalari, qardosh tillardan emas, balki noqardosh tillardan tarjima qilinadigan bo‘ldi. Askariyat xollarda darsliklarni so‘zma-so‘z tarjima qilishga intilish sezilib turadi. O‘sha davr adabiy hayotida e‘tiborga loyiq voqealardan biri sifatida yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, endi tarjimalarni tahlil qiladigan, ularning yuqori sifatli bo‘lishini talab etadigan maxsus adabiy – tanqidiy maqolalar yoziladigan bo‘ldi. Lekin bu davrda ham hali xech bir tildan mukammal lug‘atlar yaratilmagan va bu narsa tarjimalarning sifatiga yomon ta’sir ko‘rsatayotgan edi. Garchi muayyan kitob uning qaysi yilgi, qaysi nashridan tarjima qilinganligi hali ham ko‘rsatilmasa-da, endi asarlarda tarjimmonning nomi qayd etiladigan bo‘ldi. Shu maqsadda ushbu maqolada ESP/EAP o‘quvchilarining maxsus lug‘atga

Published Date:- 18-10-2023

bo‘lgan ehtiyojlari kechiktirib bo‘lmaydigan vazifala ekanligi xususida fikr-mulohazalarimizni bayon etdik.

Adabiyotlar metodologiyasi:

Кунин А.В, Apperson G.L., Азизова Ф.С., Очилов Э., Begmatov E., Madvaliyev A., N. Mahkamov, T. Mirzayev, N. To‘xliyev, E.Umarov, D. Xudoyberganova, A. Xojiyev., Collins Dictionary of English Language., Dictionary of Contemporary English., Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Longman Dictionary of Contemporary English. – London: Longman.

Asosiy qism:

Ma’lumki, nutqiy muloqot o‘nlab – milliy, etnografik, ijtimoiy, falsafiy-madaniy, axloqiy-estetik, tarixiy, maishiy va ruhiy omillarning lisoniy birliklar voqelanishi bilan qorishuvidan iborat harakatli tizimdir. Inson nutqida bu omillar u yoki bu tarzda mujassamlashadi, bir butun va yaxlit hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham nutqda sub’ektivlik va ob’ektivlikni bir-biridan ajratgan holda tadqiq qilish mumkin emas. Demak, nutqiy faoliyat unga yondosh va insonga xos ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, madaniy holatlar bilan bog‘liqlikda tadqiq etilgandagina nutqiy muloqotning mohiyati ochiladi va individual hodisa sifatidagi nutqqa ob’ektiv baho beriladi.

M.Makarovning lug‘atida: “*That had been a near shave*” iborasining asl ma’nosi “havfdan zo‘rg‘a qochgan, taqdir qil ustida, havfli holat, zo‘rg‘a chetlab o‘tilgan xavf”, kabi ifodalar bilan berilgan .

“Make the worst of both worlds” gapning tarjimasida “Yomon bilan talashsang, qadring ketar” tarzida ibora shaklida berilgan, so‘zma so‘z tarjimasida “ikki dunyo uchun xam eng yomoni” ma’nolari ifodalanadi. Bu esa, insonning nutqiy voqelanishini unga hamrohlik qiluvchi nutqiy paradigmalar (fiziologik, ruhiy, professional, axloqiy, estetik, madaniy, nutq vaziyati – nutq sharoiti, nutq uslubi) qurshovi tekshirish natijasida insonni modifikatsiya qiluvchi vositalarning ta’siri va rolini baholash, nutqning ijtimoiy qiymatiga va ta’sirchanlik –

Published Date:- 18-10-2023

bunyodkorlik qudratiga ilmiy tavsif berilishning nechog‘lik ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Har bir til borliqning o‘ziga xos in‘ikosi ekan, buni aniqlash va ilmiy baho berish tillardagi muqobil va nomuqobil birliklarni maxsus tekshirish asosida amalga oshiriladi.

Ko‘rinadiki, lug‘atlar yordamida xorijiy tilning kognitiv jihatlarini ilmiy o‘rganish xorijiy til tafakkuri va munosabatini oydinlashtirish, til va tafakkur mushtarakligining milliy voqelanishini aniqlash imkoniyatlarini beruvchi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

A.V.Kunin tomonidan ishlab chiqilgan lug‘atlar yordamida tarjima qilingan quyidagi misollarga etibor qaratsak:

The sweat was rolling down his face[WN,79] – Uning yuzidan ter oqardi; aslida so‘zma-so‘z tarjimada esa: «uning yuzi terlab ketgan edi» deya bersa ham bo‘lardi, «uning yuzidan duvillab ter oqardi» bu o‘zbekchilikka xos bo‘lgan milliy kolorit bilan ko‘chma ma’noda berilgan tarjimadir.

But there was no sign of sleeping draughts - Ammo u xushsiz yotardi; bevosita tarjimada - uyqusirash belgilari yo‘q edi;

Rogers helped by pulling out the drawers of the dressing-table - Rogers stolning tortmasini tortib, yordam berdi; bevosita tarjima – kiyinish stolini javonini ichkariga surib qo‘ydi, agar o‘tish yo‘lagiga halal bergan bo‘lsa sal nariroqqa surib qo‘yish;

came out of the drawing-room window to meet them – ularni kelishini derazadan poylab turgandi; bevosita so‘zma so‘z tarjimada – ularni(mehmon) kutib olish uchun mehmonxona derazasidan kuzatib turdi; izohi shundan iborat– ki, biror o‘zbek xonadoni, oilasi yo‘qki, mehmonni xursandchilik bilan kutib olmagan, xullas, har doim ham kelavermaydigan noyob mehmonlarni o‘zgacharoq bir izzat bilan kutib olish kerak bo‘ladi.

Bu masalani tilshunosligimizda shakllanishi lozim bo‘lgan yangi, ya’ni

Published Date:- 18-10-2023

“lingvomadaniy” deb nomlanuvchi yo‘nalish yoritishi mumkin. Yo‘nalishning asosiy diqqati til madaniyatini o‘z birliklariga qanday singdirishi va ifodalashi, saqlashi va namoyon qilishi muammolariga qaratiladi. Lingvomadaniy yo‘nalishning shakllanishi va taraqqiyoti *madaniyat* tushunchasini til va jamiyat yaxlitligining o‘ziga xos shakli sifatida tushunishga intilish kuchayganligi bilan belgilanadi. Bunda til milliy madaniyat, millat mentallikni talqin etish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi paytda ESP/EAP o‘quvchilarining maxsus lug‘atga bo‘lgan ehtiyojlari bu sohaning tadqiq predmetini ikki har xil kod: til va madaniyatning o‘zaro munosabatidan hosil bo‘luvchi lisoniy birliklarning madaniy ma’no majmuini o‘rganishni tashkil etadi. Zero, har bir shaxs bir vaqtning o‘zida madaniy shaxs ham hisoblanadi. Shunga ko‘ra, til belgilari til vakillarining umuminsoniy va madaniy-milliy mentalligini aks ettiruvchi madaniyat “tili” funksiyasini bajarish qobiliyatiga ega.

Ma’lumki, til va madaniyatning uzviy aloqasini belgilashda **milliy-madaniy jihat** alohida o‘rin tutadi. Milliy-madaniy o‘ziga xoslik shunda namoyon bo‘ladiki, milliy tillar inson ichki olami har xilligini, uning borliq hodisalariga ijobiy va salbiy munosabatini baholashi bilan farqlanadi. Zero, ilmiy adabiyotlarda lisoniy birliklarning milliy-madaniy ma’no majmuini ifodalovchi terminlarda ham quyidagicha rang-baranglik mavjud: milliy-madaniy mundarija, milliy xususiyat, milliy o‘ziga xoslik, milliy madaniyat xususiyatlari, ma’no majmuining milliy-madaniy o‘ziga xosligi, milliy mansublik mavzusi, madaniy koeffitsiyent va h.k.

Respublikamizda milliy madaniyatga alohida e’tibor qaratilayotgan, milliy g‘oya va milliy mafkura dolzarb masala va milliy yaxlitlikning negizi sifatida baholanayotgan bir paytda, xorijiy til va xorijiy til madaniyati mushtarakligini tilshunoslik muammosi sifatida, lingvomadaniy asnoda o‘rganish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifadir.

Kompyuter tilshunosligi, elektron lug‘atlar va o‘zbek milliy izohli lug‘atini

Published Date:- 18-10-2023

korpusini shakllantirish haqida fan-texnika taraqqiyoti xorijiy til tilshunosligi oldiga ham muayyan vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, xorijiy til kompyuter lingvistikasini yo‘lga qo‘yish, uning istiqbolli rejalarini belgilash zarurati kuchaygandan kuchaymoqda.

Zamonaviy fanlarning yutuqlari asosida bugungi kunda xorijiy til dalillarini kompyuter texnologiyalari asosida yaratish va qayta ishlash, tilning qo‘llanishini ma’lum bir sharoit, muammoli muhit uchun modellashtirish, mutaxassisliklar uchun tilning kompyuter modellarini lingvistika yoki boshqa sohalarda qo‘llash, mashina tarjimasini, kompyuter leksikografiyasini yo‘lga qo‘yish singari muammolar turli kompyuter lingvistikasi yo‘nalishini rivojlantirish taqozo etilmoqda.

Shu o‘rinda jahon tilshunosligida kompyuter lingvistikasining bir tarmog‘i sifatida vujudga kelib, alohida yo‘nalish sifatida shakllanayotgan korpus lingvistikasi haqida to‘xtalish juda zarur. Zero, xorijiy tilning milliy elektron korpusini yaratish – Evropa tilshunos olimlari oldidagi dolzarb vazifalardan biri.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida til korpuslarini yaratish, uni takomillashtirish va foydalanish yo‘llari masalasida ko‘plab xalqaro anjuman va simpoziumlar o‘tkazilmoqda, keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, dunyo tillarini bir korpus doirasida birlashtirish, ya’ni global korpuslar yaratish muammosi ham kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan **korpus** deganda bir yoki bir necha tildagi katta hajmdagi matnlarning jamlanmasiga asoslanuvchi elektron shakldagi axborot-qidiruv tizimi tushuniladi. Tilning milliy korpusi uning ma’lum bir davr yoki turli davrlardagi janriy, uslubiy, hududiy va ijtimoiy boshqa variantlari haqida aniq va batafsil lingvistik ma’lumot beradi. Korpus ikki qism (ma’lumot bazasi va axborot-qidiruv tizimi) dan iborat bo‘lib, u to‘plangan matnlarning dasturlashtirilgan maqsadli axborot-qidiruv tizimiga bo‘ysundirilishidan iborat. Shunga ko‘ra, korpus dunyo fanida jadal rivojlanayotgan korpus lingvistikasi

Published Date:- 18-10-2023

yoʻnalishi mahsuli boʻlib, tilshunos va dasturlovchilar yoki lingvist-dasturlovchilar tomonidan yaratiladi. Korpus lingvistik tadqiqotlar va til taʼlimi uchun elektron dasturlashtirilgan maʼlumot bazasi boʻlib xizmat qiladi. Dunyodagi yirik tillarning milliy korpuslari yaratilgan va yaratilmoqda. Ulardan Britaniya milliy korpusi (BNC), Chex milliy korpusi, Rus milliy korpuslarini sanab oʻtish kifoya. Har bir korpus bir necha oʻn milliondan yuz milliongacha soʻzli matnlarni oʻz ichiga oladi.

Xulosa qismi:

ESP oʻquvchilarining maxsus lugʻatga boʻlgan ehtiyojlari xotijiy til korpusining yaratilishi shu bilan ahamiyatli, buning natijasida tadqiqotchi lingvistik maʼlumotlarni olish uchun behad ulkan axborot xajmiga ega boʻladi. Bu esa til birliklarining barcha lingvistik xususiyatlari, tilning taraqqiyoti, undagi oʻzgarishlar - yangilanish va eskirishlar, faollashish va passivlashishlar haqida tezkor, aniq va toʻliq maʼlumotni beradi, osonlik bilan turli turdagi katta hajmli akademik lugʻatlarni tuzish, matnlarga avtomatik ishlov berish imkonini yaratadi.

Korpusning tarixiy, zamonaviy, badiiy, ilmiy, publitsistik; adabiy, dialektal; umumiy, individual (bir ijodkorga xos) kabi koʻplab turlarini yaratish mumkin. Korpus lingvistikasi korpus uchun material tanlash, unga ishlov berish, korpus loyihasini yaratish, tahrir qilish va uni toʻldirib borish kabi masalalar bilan shugʻullanadi.

Til korpusi tilshunos va lugʻatshunoslardan tashqari, oʻqituvchi va jurnalistlar, kompyuter lingvistlari, shuningdek, adabiyotshunoslar, muharrirlar, ijtimoiy fan sohasi mutaxassisleri uchun manba boʻlish bilan birga, turli avtomatlashtirilgan tizim yaratishda juda asqotadi.

Til korpusini yaratish masalasi mutaxassislar muammosiga duch kelishi tabiiy. Bu esa korpus lingvistikasi boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalashtirish, kadrlarni qayta tayyorlash, tegishli oliy oʻquv yurtlarida kompyuter lingvistikasi yoʻnalishi boʻyicha mutaxassislar tayyorlashni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qoʻyadi.

Published Date:- 18-10-2023

Ma'lumki, istiqbolli muammolarning yechimiga zamon talablari asosida, davrga hamohang munosabatda bo'lish, fundamental tadqiqotlar yo'nalishida muayyan, maqsadli va samarador masalalar bilan shug'ullanish har doim ham taraqqiyotni belgilovchi asosiy omillardan bo'lgan. Zikr etilgan muammolar yechimida ham mutaxassislar faoliyatini uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy muassasalardagi tuzilma va bo'limlar maqsadu vazifasini qayta belgilash, istiqbolli muammolar bilan shug'ullanuvchi bo'lim, markaz va laboratoriyalar faoliyatini yo'lga qo'yish juda zarur. Ushbu muammolarning yechimi, hech shubhasiz, Respublikamiz oliy ta'limini modernizatsiyalash orqali uni dunyoning ilg'or texnologiyalari darajasiga yetkazadi.

Adabiyotlar ruyxati

1. Кунин А.В. Фразеологические единицы и контекст // Иностранные языки в школе. М., 1971. № 5. – С. 215.
2. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. - ИМО, 1972 .–С. 287.
3. Англо-русский фразеологический словарь. – М.: Русский язык, 1984. – С.942.
4. Apperson G.L. English Proverbs and Proverbial Phrases. – London. – New York, 1929. –p. 499.
5. Abdullayeva, Markhabo THE APPEARANCE OF THE TERM “EDUCATION DICTIONARY” IN WORLD LINGUISTICS IS ANALYZED // ORIENSS. 2022. № Special Issue 28-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-appearance-of-the-term-education-dictionary-in-world-linguistics-is-analyzed>
6. Азизова Ф.С. Инглизча-ўзбекча-русча фразеологизмларнинг қисқача луғати. Тошкент: Фан ва технология, 2010. — 160 бет.
7. Collins Dictionary of English Language. – London; Glasgoe, 1999. –p1690.
8. Dictionary of Contemporary English. – Editor-in-Chief Procter P. – London: Papermark, 1998. – XXXIX, – p1303.
9. Longman Dictionary of Contemporary English. – London: Longman, 1997. – p.1229.
10. Очилов Э. Таржимашунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ТДШИ, 2014.

**“TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN THE CONTEXT OF SUSTAINABLE
DEVELOPMENT: BEST PRACTICES, PROBLEMS AND OPPORTUNITIES”**

Published Date:- 18-10-2023